
“Buyuk ipak yo’li” xalqaro folklor musiqa festivali

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi **“Buyuk ipak yo’li”** xalqaro folklor musiqa festivalini tashkil etish va o’tkazish to’g’risida”gi 371 – sonli qarori asosida, Marg’ilon shahridagi **“Erkin Vohidov” nomidagi “Madaniyat va istirohat” bog’ida** 11-13-iyul kunlari “Buyuk ipak yo’li” xalqaro folklor musiqa festivali bo’lib o’tdi. Festivalda Farg’ona viloyati Marg’ilon shahri **“Chodir jamol”**, Qo’qon shahri **“Qo’qon yor-yori”**, Qo’shtepa tumani **“Kabutar”**, So’x tumani **“So’x chashmasi”**, Furqat tumani **“Shodlik”** va Quvasoy shahri **“Qo’sh chinor”** folklor-etnografik ansambllari, shuningdek, 41 ta havaskor folklor guruhlari mavjud bo’lib, har bir guruhning bir-biriga o’xshamagan, o’ziga xos repertuarlari bilan ishtirok etishdi. Ularning musiqiy ijrochiligida yalla, lapar, aytishuv, o’lan, yor-yor, allalar alohida e’tiborni o’ziga tordi.

Festifalda Qo’shtepa tumani ham o’z chiqishlari va ko’rgazmalari bilan faol ishtirok etdi.

“Buyuk ipak yo’li” xalqaro folklor festivali doirasida **“Ijodiy jamoalar”** o’rtasida Farg’ona viloyati hokimi sovrini uchun o’tkazilgan tanlovda faol ishtiroki uchun Farg’ona viloyati Qo’shtepa tumani **“Kabutar”** folklor – etnografik xalq jamoasi Farg’ona viloyati hokimining diplomi bilan taqdirlandilar.



















2019-07-16 14:20:54